

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING PHYSICS.

Nurillayeva Mavjudaxon Muhiddinova

She is a teacher of physics of the highest category of school 322 of Sergeli district of Tashkent.

Annotation: After the independence of our country, radical changes have taken place in the field of education in the Republic, and new reforms are being carried out in this area. General secondary education curricula and textbooks have been completely revised and amended. In particular, a number of experiments were conducted in the method of teaching physics. But we also have problems to solve in this area. This can be seen from the results of university entrance exams. One of the most pressing issues facing a physics teacher today is the design of modern teaching technologies and their application in teaching practice. This article discusses the aspirations of teachers to modernity in the educational process and the use of a variety of pedagogical and interactive methods in the teaching of physics to students.

Keywords: Physics, interactive methods, students, learning process, interactive lessons.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Nurillayeva Mavjudaxon Muhiddinova

Toshkent shahar Sergeli tumani 322-maktabning Oliy toifali fizika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Respublika ta'lim sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu sohada yangidan-yangi islohotlar olib borilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlari dasturlari, o'quv adabiyotlari butunlay yangidan qayta qarab chiqildi va kerakli o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, fizikani o'qitish uslubida ham qator tajribalar to'plandi. Biroq bu sohada hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarimiz ham yo'q emas. Buni oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish natijalaridan aniqlash mumkin. Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Ushbu maqolada, ta'lim beirhs jarayonida o'qituvchilarning zamonaviylikka intilishi va o'quvchilarga fizika fani bo'yicha ta'lim berish jarayonida turli xildagi pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fizika, interfaol metodlar, o'quvchilar, ta'lim jarayoni, interaktiv darslar.

Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishiladi. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak. Metodika ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan va ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga suyanib rivojlanadi. Bir muallifning ilg'or pedagogik ish tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llayolmaydilar, Bunda natijalar har kimda har xil bo'ladi. Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijalarga erishadilar. Optimal tanlangan metodlar qo'yilgan vazifalarni ajratilgan vaqtda ko'ngildagidek hal qilish uchun yetarlicha imkon beradi. Ayrim sharoitlar (mavzular) uchun muvafaqqiyatli, samarali bo'lgan narsa boshqa sharoitlar, boshqa mavzu uchun mutlaqo nomaqbul bo'lib chiqishi mumkin. O'qitish metodlarini qo'llash konkret pedagogik vaziyatga bog'liqligi sababli, o'quv jarayonida har bir metodning doimiy salmog'i qandayligini hisoblash, ko'rgazmalilik, muammolilik va shu kabilar uchun ma'lum prtsentni belgilash mumkin emas. Qisqa qilib aytganda, har bir pedagogik vaziyatda o'qitish metodlarini standart tanlash emas, balki tushungan holda va aniqlik bilan tanlash zarurdir.

Darsni yangi pedagogik interfaol metodlar va texnologiyalar:

– axborot vositalaridan foydalanib;

– ko'rgazmali qurollari yordamida;

– interfaol metodlarni qo'llash orqali va boshqalardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi.

An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo'llay bilish bugungi zamon fizika o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir.

Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natijasining kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to'g'ri baholay olishiga bog'liqdir. Har bir o'tiladigan darsda ta'limning aniq maqsadining belgilanishi o'qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo'yicha o'qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtdan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi ko'payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti.

Xulosa qilib aytganda, fizikani o'tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zamonaviy talablardan biri bo'lib, pedagogik xodimlar va o'qituvchilardan uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashini talab etadi. Boshqa fanlardagi kabi fizika fanini o'qitishda ham yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Maktabda dars berish va fizika darslari jarayonida zamonaviy axborot texnologiya va texnika vositalaridan foydalanish ta'lim sifatining ortishi va o'quvchilarning ham fizikaga qiziqishi ortishiga ham sabab bo'ladi. Bu jarayonda esa eng muhimi pedagogdan o'z ustida ko'proq ishlashi va dars o'tish texnikasida interfaol metodlarni qo'llash talab etiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. The share of interactive methods used in teaching physics. | Download Scientific Diagram. https://www.researchgate.net/figure/The-share-of-interactive-methods-used-in-teaching-physics_fig1_266585971
2. Fizika ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar: hamkorlikda o'qitish. <https://fayllar.org/mavzu-fizika-talim-samaradorligini-oshirishga-xizmat-qiladigan.html>
3. Fizika o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish / Таълим ва taraqqiyot / Fikr.uz http://fikr.uz/blog/talim_fan_taraqqiyoti/fizika-o_qitishda-innovatsion-usullardan-foydalanish.html
4. Interactive Methods of Teaching Physics at Technical Universities | Semantic Scholar. <https://www.semanticscholar.org/paper/Interactive-Methods-of-Teaching-Physics-at-Kri%C5%A1%C5%A5%C3%A1k-N%C4%9Bmec/61e942458c3962e6075f6ff6e3c5940a7f3b5669>